

MURAL MEDIANING TASVIRIY SAN'ATDAGI O'RNI

Negina Ixtiyor qizi Kuchkarova

O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, o'qtuvchi
Respublika Iqtisoslashgan Musiqa va San'at Maktab-Internati
Toshkent, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I3-2>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mural medianing tasviriy san'atdagi o'rni mavzusini mahobatli rangtasvirchi rassomlar va ular yaratgan asarlarining kompozitsion yechimi va tahlili to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan fikrlar va qarashlar rassomlar asarlari orqali ifoda etiladi.*

Kalit so'zlar: mural, monumental rasm, graffiti, posterlar, asfaldagi rasmlar, mozaykalar, strit-art.

KIRISH

Mural - arxitektura inshootlari devorlariga monumental rasmning bir turi. U shahar ko'chalaridagi binolarning ko'runga-ko'rka qo'shish uchun chizilgan zamonaviy san'at asari hisoblanadi. Bu so'z ispancha "muro" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "devor" degan ma'noni anglatadi. Mural alohida san'at turi sifatida taxminan bir asr oldin Meksikada - 1920-yillardagi inqilobiy voqealar paytida paydo bo'lgan. Rassomlar avangard rassomlarning klassik rasmning mavjud qoidalarini buzish va yangi inqilobiy san'atni ommaga etkazish uchun ustaxonalarini tark etish chaqirig'iga tom ma'noda amal qilishdi. Meksika hukumati innovatsion monumental rasmni ma'qulladi; Ta'lif vaziri hatto yosh rassomlarga jamoat binolarining bir nechta devoriy rasmlarini buyurtma qildi. Rassomlar o'z mablag'lari yoki moliyalashtirilgan shahar loyihalari doirasida devor rasmlarini yaratadilar. Zamonaviy dunyoda san'at ob'ekti sifatida devor rasmlari ko'pincha zamonaviy san'at festivallarida yaratiladi. Mural medya ko'plab shaharlarda mavjud. birinchi devoriy rasm.

ASOSIY QISM

Toshkentda 4 yil oldin chizilgan. 2020-yilning "Ziyo forum" fan va ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashabusi bilan poytaxtda shifokor va do'ppi kiygan bola bilan tas'virlangan ilk mural yaratildi. Bu mural Sergili tumani va Lutfkor ko'chalari kesishmalarida joylashgan. Asar muallifi Xasan Maychiyev.



"Ziyo forum" fan va ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashabusi bilan poytaxtda shifokor va do'ppi kiygan bola. 2020-yil. Asar muallifi Xasan Maychiyev.

Bu muralda covid davrining ruxi tasvirlangan bo'lib, avlodning tug'ilishi bu davrda judayam qiyn kechkanini his qilish mumkin. Ko'p farzandlar bu davrda vohli tug'ilgan kassalik oqibatida nobut bo'lgani, shifokorlarning zimmasida judayam katta ma'suliyat borligini chirolyi tasvirlashgan. Bu asar pandemiya qurbanlari uchun o'ziga xos yodgorlik va ular xotirasi uchun hurmat belgisi bo'ldi. Yaratilgan obraz - fuqarolar e'tiborini yana bir bor shifokorlarimiz mardligi va jasoratiga qaratish uchun imkoniyat. Ushbu asar orqali virusga qarshi birinchi qatorlarda kurashayotgan va o'zlarining professionalligini namoyish etib, insonlar hayotini qutqarayotgan shifokorlarga minnatdorlik hissini yetkazmoqchi bo'lgan rassom. Mural ko'rinmas dushmaniga qarshi kurashayotgan shifokorlar qahramonligining ramziga aylandi. Ta'kidlash joizki, ushbu joy tasodifan tanlanmagan, ko'p qavatlari uydan uzoq bo'lmagan masofada koronavirusga chalingan bemorlarni taqsimlash markazi mavjud bo'gan. Ko'pgina shifokorlar ikki oy yoki undan ortiq muddat davomida uyda bo'lishmagan va ushbu ijodiy mural orqali ularga o'z minnatdorchiligini bildirishgan. Bu muralning yutug'i shundaki ranglar va kompozitsion joylashuvi judayam chirolyi bo'lib, insonlarga ko'tarinki rux bag'ishlaydi. Kamchiligiga to'xtalsak shifokor ayolning qo'llari kichkinaroq ishlangan va azgina fonini issiq ranglardan foylanish to'g'riroq bo'lar edi.

Ikkinci mural ham Yangihayot tumanidagi «Do'stlik» mahallasida joylashgan bo'lib, ko'p qavatlari uyning devoriga chizilgan. Bu mural «Do'stlik ramzi» Ilm-fan va ta'lif rivojiga bag'ishlangan bo'lib, ta'limni-nur kabi timsol qilingan. Shavkat Mirziyoyev Yangihayot tumanidagi «Do'stlik» mahallasiga tashrifi

davomida ko‘p qavatli uyning devoriga chizilgan «Do‘stlik ramzi» muraliga e’tibor qaratgan. «Bu mural ham odamning kayfiyatiga ijobiy ta’sir qiladi», degan prezident. «Nega hammayoqqa shunday qilmaysizlar? Bu mural ham odamning kayfiyatiga ijobiy ta’sir qiladi», — degan Shavkat Mirziyoyev.

Bu mural “Do‘stlik ramzi” haqida yaratilgan bo‘lib, Yangi hayot tumanidagi 9 qavatli binoga chizilgan. O‘zbekiston bayroqlarini yurtimizning tinch osmoni tomon ko‘tarayotgan uch bola tas’virlangan. Do‘stlik — ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O‘zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o‘rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Kishilarning muloqot shakli sifatidagi Do‘stlik qonqardoshlik, o‘rtoqlik, birodarlik tushunchalariga yaqin, lekin psixologik nuqtai nazardan esa ulardan o‘zining alohidaligi, tanlash xususiyati, his-tuyg‘u bilan farq qiladi. Axloqiy psixologik hodisa va shaxsiy xislat sifatida do‘stlik odamning yoshik do‘stlik, shaxsning shakllanishi bilan o‘zgarib boradi. Ijtimoiy-axloqiy muhit, kishilarning turmush tarzi do‘stlikning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Haqiqiy, mustahkam do‘stlik yuksak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsad va ideallar mushtarakligini anglash asosida shakllanadi. Do‘stlik millat va xalqlar o‘rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o‘z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko‘p millatli O‘zbekistonning rivojlanishi uchun xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik nihoyatda muhim. Xalqlar, millat va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir. Bu muralda osmonimiz musafoligi, tinchligi, millatlarni do‘stligi judayam chiroyli issiq sovuq ranglardan foydalanganligi yutuqlaridan bir.



«Do‘stlik ramzi» murali 2022-yil. Asar muallifi Xasan Maychiyev.

Uchinchi mural ham Sergeli tumanida joylashgan. Ilm-fan va ta’lim rivojiga bag‘ishlanishi ilimming yengilligini ko‘rsatadi. “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q, va hechqachon bo‘Imagay” Imom Buxoriy. Ilm insonga nima foyda-yu, nima zarar ekanini bildiradi. Inson orzu maqsadlariga ilm orqali yetishadi.



Ilm-fan va ta’lim rivoji. 2022-yil. Asar muallifi Xasan Maychiyev.

Bu muralda ilm orqali kelajak qurish, faqatgina o‘qib izlanibgina maqsadlarga yetishish mumkinligi issiq sovuq ranglarda go‘zal tas’virlangan bu rassomning yutug‘i.

To‘rinchi mural ham Sergili tumanida joylashgan bo‘lib, u Adrenalin Rush tashabussi bilan “Siz hamma narsani qila olasiz” aksiyasi doirasida yaratilgan. Bu mural ham Sergili tumanida joylashgan bo‘lib, u Adrenalin Rush tashabussi bilan “Siz hamma narsani qila olasiz” aksiyasi doirasida yaratilgan. Muralda g‘oya, mazmun juda munosib tushgan. Ranglari chegaralangan palitrada bo‘lishiga qaramay bir -biriga uyg‘unligi bor. Asosiy yutug‘i uch o‘lchamli qilib ishlangani.



Adrenalin Rush tashabussi bilan “Siz hamma narsani qila olasiz” aksiyasi doirasida 2022-yil. Asar muallifi Xasan Maychiyev.

Graffiti, posterlar, asfaltdagi rasmlar, mozaykalar va strit-art — bularning barchasi mural art shahar ko‘chalaridagi san’at hisoblanadi. Ba’zilar uchun esa jamoat joylari, metro va yer osti yo‘llaridagi graffittilar vahshiylik va bezorilikka o‘xshatish mumkin. Tasvirlar asosan biror muammoli mavzuni keng omma oldida targ‘ib qilish uchun yashirin tarzda chiziladi. Graffittilar imoratlarning devorlari va idishlar sirtiga tirmash yo‘li bilan chizilgan qadimiyy yozuv, naqsh va suratlar bo‘lib, italyan tilidan tarjima qilinganda “tirnalgan” degan ma’noni anglatadi.

Graffittilar qadimiyy odamlarning kasbi, qiziqishi, san’ati, turmush tarzi to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni

saqlab qolgan. Graffitilar qadimiy qabilalarning jonli tilini bilishga imkon beradi. U paleografiya fanini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda maxsus talablarga mos keladigan milliy uslubda graffiti yaratishga rasman ruxsat berilishi mumkin. Bu haqda O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlarini yanada diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida so'z yuritiladi. Qayd etilishicha, har bir viloyatda sayyohlik salohiyatini oshirish uchun kamida bitta shunday ko'cha bo'lishi kerak. Shu bilan birga, sayyohlik obyektlaridagi suratlar uchun hech qanday ruxsat beruvchi hujjatlar talab qilinmasligi aytilgan. Suratlarni yaratish ustida ishlash huquqini madaniyat sohasidagi ta'lif muassasalari o'quvchi va talabalari qo'liga kiritadi. "Noyob ko'cha san'ati" loyihasi doirasida milliy uslubda va ranglarda yaratilishi kerak.

Strit-art (street art) ingliz tilidan tarjima qilinganda «ko'cha san'ati» degan ma'noni anglatadi. San'atning ushbu yo'nalishi quyidagilarni o'z ichiga olgan: devoriy rasmlar; jamoat joylari va boshqa turli xil obyektlardagi tasvirlar; ko'cha installatsiyalari; stikerlar; posterlardir. Strit-art tasviriy san'atning urbanistik uslubi hisoblanadi. Strit-art tarafodorlarining fikricha, galereya, muzey va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadigan san'at asarlarini hamma ham ko'ra olmaydi. Aynan shuning uchun strit-art rassomlari san'atning demokratik tabiatni, ya'ni barchaga ochiq bo'lishi va har kim undan bahramand bo'la olishi uchun kurashishadi. Loyihalarning «o'tkinchiligi» va uzoq saqlana olmasligi strit-artning asosiy g'oyalardan biridir. Har qanday vaqtida, o'ziga xos «eksponat» izsiz yo'q bo'lib ketishi, rasmiyalar ko'rsatmasi bo'yicha bo'yab tashlanishi mumkin. Rassomga asosiysi ikkita narsa kerak: purkagich bo'yoq va nima chizmoqchi bo'lgani haqidagi aniq tasavvur. Chunki tasvirlar asosan juda tez va hech kim to'sqinlik qilmaydigan paytda yaratilishi kerak. Ta'kidlash joiz, strit-art inson ongli mavjudot sifatida paydo bo'lgandan beri mavjud. Mazkur san'at avval qoyaga o'yilgan tasvirlar orqali namoyon bo'lgan. So'ng, sivilizatsion jamiyatda (Qadimgi Rim, Gretsiya, Misr va boshqalarda) odamlar devorlarga yozuvlarni tushirib o'z fikrlarini bildira boshlaganlar.

Strit-art harakati 1970-yillarning boshlarida AQShda paydo bo'lgan deyiladi. Biroq, bundan bir necha o'n yillar oldin, Ikkinci Jahon urushi paytida, AQShning Detroyt shahrida Kilroy (Kilroy) ismli odam yashagan. U qurol ishlab chiqarish zavodida ishlagan va bombalar bo'lgan qutiga «Kilroy was here» («Kilroy shu yerda bo'lgan») yozuvini qoldirishni juda yaxshi ko'rgan. Bu yozuv askarlar orasida mashhur bo'lib ketgan, u oddiy rasm bilan to'ldirilgan va o'shandan beri «Kilroy» amerikalik askarlar bilan sayohat qila boshlan. Strit-artning zamonaliviy ko'rinishi 1960-yillarda Filadelfiya (AQSh)da rivojlangan. Ushbu joy haligacha graffiti madaniyatining tarixiy markazi deb hisoblanadi. 1970-yillarda esa mazkur harakat New-Yorkda tarqala boshlagan. Manxettenning Washington Heights nomli kvartalida ushbu san'at turiga oid yozuvlar paydo bo'lgan. Aynan shu paytda «tegging» — muallifning ismi yoki taxallusini o'z ichiga olgan

belgilari o'yab topilgan. Shu bilan birga, taxallus oldiga ko'chaning raqamlarini yozib qo'yish odati ham urf bo'lgan. Shu tariqa, dunyoning turli chekkalarida shaharsozlik rivojlangani sari strit-art ham taraqqiy etib, zamonaliv urbanistik hayotning ajralmas qismiga aylangan. 2012 yilda birinchi marta Sankt-Peterburgda Strit-art muzeyi ochilgan. Bu muzeyning asosiy maqsadi — strit-art va graffiti haqida ma'lumot berish hisoblanadi. Muzey, shuningdek, zamonaliv loyihalarni tashkil etishda yordam beradi, yosh rassomlarni qo'llab-quvvatlaydi. Muzey vakillari shahar markazidan uzoqda joylashgan sanoat obyektlaridan foydalanib, ijodkorlikni rivojlantirishga yangicha yondashuvni joriy etishga urinib kelishmoqda. Mashhur strit-art rassomlari:

Banksy — ushbu rassomni zamonaliv san'atning «koltin standarti» deb atashadi. Uning shaxsi haligacha to'liq ochilmagan. Rassomning ko'pgina ishlari qo'riqlanadigan obyektlar reyestriga kiritilgan. Bristol shahridan bo'lgan Benksi butun dunyo bo'yab ijod qiladi.

Vhils — Alekandr Fartu portugaliyalik rassom. Tasvirlarini elektron drel orqali yaratadi.

Above (Tavar Zawacki) — faoliyatini AQShda boshlab, keyinchalik Berlinga (Germaniya) ko'chib o'tgan. Uning asarlarida zamonaliv tizimdag'i adolatsizlik hamda aholining ayrim qatlamlari qashshoq yashashi mavzusi ko'tariladi.

Roa — belgiyalik ijodkor o'z asarlarida asosan madori qolmagan, ichki organlari ko'rinish turgan tarzdagi hayvonlarni aks ettiradi. Rassom o'z ishlarida rentgen effektiga taqlid qilishga intiladi

C215 — ko'pchilik tomonidan «Benksiga fransuzcha javob» deb e'tirof etilgan rassom Kristian Gemi ingliz ijodkori singari trafaretlardan foydalanadi. Uning ishlari esa nafaqat yuqori sifati, balki aktual bo'lgan ijtimoiy masalalarni targ'ib qilishi bilan ajralib turadi

2016 yilda Toshkent shahrida «Hayot, bu — san'at!» shiori ostida birinchi Street Art Battle festivali bo'lib o'tgan. Festivaldan ko'zlangan maqsad strit-art imkoniyatini namoyish etish va yoshlar ijodiy salohiyatini rag'batlantirishdan iborat edi. 2020 yilda O'zbekiston Turizmnı rivojlantirish davlat qo'mitasi mamlakatda sayyohlar oqimini rag'batlantirish uchun graffitiga rasman ruxsat berishni taklif qilgan. Shu bilan birga, graffitiga faqat maxsus ajratilgan sayyohlik joylarida ruxsat berish g'oyasi ilgari surilgan. Turistik joylarga olib boradigan ko'chalar milliy madaniyat ruhi asosida graffiti bilan bo'yagan bo'lishi kerakligi aytilgan. O'zbekistonda mahalliy Benksi nomini olgan graffitichi Inkuzart ham faoliyat olib boradi. Ijodkor Abdulla Qodiriy, Cho'lpox va Abrurauf Fitrat portretlari aks etgan graffitilarni chizgan edi. u chizgan graffiti — tibbiy niqobdagagi Mona Liza tasviri bo'yab tashlangan edi. Inkuzart O'zbekiston avtomobil bozoridagi monopoliya hamda mashina olish uchun uzun navbatlarni aks ettirgan yangi graffiti chizgan. Ushbu surat ham to'liqligicha bo'yab tashlangan. Inkuzart tomonidan sport gimnastikachisi Oksana Chusovitinaga bag'ishlangan graffiti yaratilgan. Unga sportchining o'zi ham baho bergan.

XULOSA

Devor rasmi va graffiti o'rtasidagi farq nimada degan savol paydo bo'lishi mumkin. Shuni tushunish kerakki, devor san'ati va graffiti ko'cha san'atining juda o'xshash turlari bo'lsa-da, ular orasida hali ham farq bor. Gap shundaki, devoriy suratlar chinakam san'at asari bo'lib, ular go'zal tasvirdan tashqari, qandaydir chuqr g'oya yoki ma'noni ifodalashga mo'ljallangan. Shunday qilib, bu tasvirlar hayot yoki mifologiyaning turli xil sahnalarini tasvirlaydigan klassik freskalar bilan ko'proq umumiylitka ega. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, devoriy suratlar freskalarning rivojlangan shaklidir. Bundan tashqari, devoriy rasmlarni yaratish hokimiyat bilan kelishilgan harakatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. Степанов, Г.П. "Композиционные проблемы синтеза искусств". - Л. "Художник". 1984
2. 2.Декоративная монументальная живопись, Шанхай. 1999.
3. 3.Монументальное искусство. - Л. "Художник". 1984
4. "O'zbekiston san'ati". Т.: 2001
5. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Средного Востока Тошкент: 1987
6. <http://www.zyonet.uz>
7. <http://www.google.uz>
8. <http://www.yandex.uz>
9. <http://www.Wikipedia.uz>
10. <https://dzen.ru/>
11. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/10/14/street-art/>